



NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-noyabr

202-5-73-Q/25

Navbahor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 629-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 15-oktabrdagi 238-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PF-173-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 629-sonli hamda Navoiy viloyat hokimining 2025-yil 15-oktabrdagi 238-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 21¹-, 27-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 629-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 15-oktabrdagi 238-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish dasturi;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun savolnoma shakllari ro‘yxati hamda mazkur shakllar;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish hamda natijalarini e‘lon qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda - Ishchi guruh) tarkibi;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazishning ahamiyati va mazmun-mohiyati bo‘yicha targ‘ibot media rejasi tasdiqlangani inobatga olinsin.

3. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga qat‘iy amal qilinishi ta‘minlansin.

4. Quyidagilar:

Tumanda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish hamda natijalarini e‘lon qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazishning ahamiyati va mazmun-mohiyati bo‘yicha targ‘ibot media-rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumanda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish hamda natijalarini e‘lon qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ta‘minlansin.

6. Tuman statistika bo‘limi (M.Sanaqulov), O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi (S.Normurodov) ro‘yxatga olish tadbirida to‘plangan ma‘lumotlarning sifatini ta‘minlash maqsadida:

2025-yil 1-noyabrdan boshlab ro‘yxatga olish axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha “mahalla yettiligi” xodimlari uchun amaliy o‘quv-seminarlarini tashkil etish;

aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonlarini ro‘yxatga olish axborot tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tkazish;

ro'yxatga olish ishlarining o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan kunlik nazorat tizimini joriy etish choralarini ko'rsin.

7. Tuman ichki ishlar bo'limi (A.Rayxanov) ro'yxatga olish davrida ro'yxatga olish jarayoniga jalb etiladigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlasin.

8. Viloyat hokimining 2020-yil 13-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "2023-yilda O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 710-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi Q-150-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi inobatga olinsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari M.Jumaboyev, Z.G'ulomov, A.Tuxliyev hamda tuman statistika bo'limi M.Sanaqulov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Rashidov A.A

Navbahor tumani hokimining
2025-yil 4-noyabrdagi
202-5-73-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Navbahor tumanida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni
tashkil etish bo'yicha tuman komissiyasining
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
I. Ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish				
1.	Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha hududiy komissiyalar (keyingi o'rinlarda – hududiy komissiyalar) faoliyatini yo'lga qo'yish.	1.Tuman hududiy komissiyasi tomonidan amalga oshiradigan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash. 2. "Ro'yxatga olishni tashkil etish va ko'maklashish, amalga oshirilayotgan ishlarning monitoringgi bo'yicha Ishchi guruh" tarkibini tuzish va tasdiqlash.	2025-yil 15-oktabr 2025-yil 1-noyabr	Tuman hokimligi, Tuman statistika bo'limi.
2.	Aholi punktlarida yashovchi aholi soni ko'rsatilgan holda ko'chalar bo'yicha xonadon va uylar ro'yxatini shakllantirish.	1.Tuman bo'yicha aholi soni ko'rsatilgan holda ko'chalar bo'yicha xonadon va uylarning ro'yxatini yangilash. 2.Yangilangan xonadonlar ro'yxatini tuman statistika organlariga taqdim etish.	2025-yil 15-oktabr	Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi
3.	Ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqish.	1.Tuman ro'yxatga olish uchastkalariga bo'lgan holda tashkiliy rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2025-yil 25-oktabr	Tumanda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish

		2.Tuman bo'yicha yig'ma tashkiliy rejalarni tasdiqlash.	2025-yil 1 noyabr	bo'yicha Tuman komissiyasi, Tuman statistika bo'limi
4.	Ro'yxatga olish ishlariga jalb etiladigan "mahalla yettiligi" xodimlarining ro'yxatini shakllantirish.	1. Ro'yxatga olishda ishtirok etadigan xodimlar va ko'zda tutilmagan holatlarni inobatga olgan holda zaxira (ro'yxatga olish uchastkalariga bir nafardan) xodimlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Belgilangan tartibda "Mahalla yettiligi"da mavjud bo'sh ish o'rinlarini malakali mutaxassislar bilan to'ldirilishini ta'minlash 3. Ro'yxatga olish jarayonlarida ishtirok etuvchi xodimlar (Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash va Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlaridan olingan zaxira xodimlarini qo'shgan holda) ro'yxatini tasdiqlash.	2025-yil 1-noyabr	Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman statistika bo'limi, Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi, tuman hokimligi, tuman komissiyasi.
5.	Shaxsga doir va qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid ma'muriy ma'lumotlarni shakllantirish.	1. O'zlarining ma'lumotlar bazasidagi shaxsga doir ma'muriy ma'lumotlarni fuqarolar bo'yicha 2026-yil 15-yanvar holatiga tuman statistika bo'limiga taqdim etish. 2. Qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid ma'muriy ma'lumotlarni xo'jaliklar kesimida tuman statistika bo'limiga 2026-yil 15-yanvar holatiga taqdim etish.	2026-yil 15-fevral	Tuman Adliya bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi, Tuman soliq bo'limi, Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman fermerlar kengashi, Kadastr agentligining tuman

				bo'limi,
6.	“Mahalla yettiligi” xodimlarini bir martalik rag'batlantirish.	1. Mahallalari uyushmasi tuman bo'limi ro'yxatga olishda ishtirok etadigan “mahalla yettiligi” xodimlarining sonini taqdim etish. 2. “Mahalla yettiligi” xodimlarini bir martalik rag'batlantirish to'g'risida ishlarni tashkil etish.	2025-yil 20-dekabr 2026-yil 5-mart	Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman statistika bo'limi,
7.	Ro'yxatga olish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Ro'yxatga olishni o'tkazishga jalb qilinadigan xodimlarni o'qitish uchun yaroqli bo'lgan mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha binolar yoki xonalar ajratish. 2. Tuman ro'yxatga olish shtablarini va ro'yxatga olish uchastkalarini kanselyariya (<i>ruchka, qalam, A4 qog'oz, stepler, skrepka, ro'yxatga olish kitobi, papka va boshqalar</i>) jihozlari, zarur hollarda transport vositalari bilan ta'minlash. 3. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha monitoring qilish.	2025-yil 15-dekabr — 2026-yil 15-yanvargacha 2025-yil oktabr – 2026-yil fevral Doimiy	Tuman hokimligi
8	“Mahalla yettiligi” xodimlarining planshet qurilmalarining xatlovdan o'tkazilishini tashkil etish.	“Mahalla yettiligi” xodimlarining planshet qurilmalarini xatlovdan o'tkazish.	2025-yil 15-oktabr	Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman statistika bo'limi Tuman oila va xotin-qizlar

				bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi
9.	Ro'yxatga olish jarayonlarini texnik qo'llab - quvvatlash.	1. Ro'yxatga olish jarayonini texnik jihatdan qo'llab - quvvatlash uchun "Call center" tashkil etish. 2. Tuman komissiyasi tomonidan tuman shtabi va "Call center" uchun zarur bo'ladigan xonalar, kompyuter, mebel jihozlari, uzluksiz internet, telefon, faks va boshqa zarur texnika vositalari bilan ta'minlash.	2026-yil yanvar -fevral	Tuman statistika bo'limi, Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi, Tuman komissiyasi.
10	Ro'yxatga olishni planshet qurilmalari bilan ta'minlash.	1. Planshet qurilmalari nosoz yoki mavjud bo'lmagan "mahalla yettiligi" xodimlarini planshet qurilmalari bilan ta'minlash choralarini ko'rish.	2025-yil 1-dekabr	Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy

				agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi, Tuman statistika bo'limi
11	Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hududlarni yuqori tezlikdagi aloqa kanallari bilan ta'minlash va ro'yxatga olish axborot tizimi hamda ma'lumotlar bazasi uchun maxsus joy ajratish.	<p>1. Ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida statistika organlari hamda tuman ro'yxatga olish shtabiga yuqori tezlikdagi aloqa kanallarini ajratish.</p> <p>2. Ro'yxatga olish jarayonlarida shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida "mahalla yettiligi" xodimlarining planshet qurilmalarini himoyalangan virtual shaxsiy tarmoq (VPN) aloqa kanali bilan ta'minlash.</p>	<p>2025-yil 1-dekabr</p> <p>2025-yil dekabr – 2026- yil fevral</p>	Tuman statistika bo'limi, tuman komissiyasi
12	Axborot tizimining maxsus mobil ilovasini planshet qurilmalariga o'rnatishni tashkil etish.	<p>1. Ro'yxatga olish axborot tizimining maxsus mobil ilovasini "mahalla yettiligi" xodimlari va boshqa jalb qilinadigan xodimlarning planshet qurilmalariga o'rnatishni ta'minlash.</p> <p>2. "Mahalla yettiligi" xodimlarining planshet qurilmalariga JPS kuzatuv tizimini o'rnatish.</p>	<p>2025-yil 1-dekabr</p> <p>2025-yil 1-dekabr</p> <p>2026-yil 15-yanvar</p>	<p>Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi, Tuman statistika bo'limi</p>

13	Ro'yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish.	1. "Mahalla yettiligi" xodimlarini (zaxiraga olingan xodimlarni qo'shgan holda) o'qitish ishlarini tashkil qilish.	2025-yil noyabr 2025-yil noyabr-dekabr	Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi, Tuman statistika bo'limi, tuman hokimligi
14	Tumandagi taniqli yozuvchilar, shoirlar ishtirokida ro'yxatga olish tadbirini aholi o'rtasida keng ommalashtirish va ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishga chorlash bo'yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etish.	1. Senariy asosida videorolik va ijtimoiy reklamalar tayyorlash. 2. Mahalliy OAVda maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish. 3. Gazeta va jurnallarda maqolalar berib borish.	2025-yil 15-noyabr 2025-yil noyabr – 2026-yil fevral	Tuman madaniyat bo'limi, Tuman statistika bo'limi, Tumandagi gazeta tahririyati
15	Ro'yxatga olishning targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.	1. OAV va davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida turkum maqolalar, ko'rsatuvlar, eshittirishlar berib borish. 2. Videoroliklar va ijtimoiy reklamalar tayyorlash hamda ularni televideniya namoyish etish va	2025-yil noyabr – 2026-yil fevral	Tuman statistika bo'limi, Tumandagi gazeta va jurnallar tahririyatlari, tuman hokimligi

		<p>ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish.</p> <p>3. Tarqatma materiallar (buklet, flayer va boshqalar) tayyorlash va ularni aholining keng ommasiga yetkazish.</p> <p>4. Bannerlar tayyorlash va o'rnatish.</p> <p>5. Mahallalar, oliy ta'lim tashkilotlari, maktablar, litseylar, sog'liqni saqlash tashkilotlari hamda boshqa korxonalar va tashkilotlarda seminarlar tashkil etish.</p>		
III. Ro'yxatga olishni o'tkazish				
16	Ro'yxatga olish ishlarining sifatli o'tkazilishini tashkil etish.	<p>1. Internet tarmog'i orqali ro'yxatga olish jarayonlarini belgilangan muddatlarda sifatli o'tkazilishini tashkil etish.</p> <p>2. Planshet qurilmalari orqali ro'yxatga olish ishlarini respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) turar joy va noturar joylarga, binolarga tashrif buyurgan holda uyma-uy yurib so'rov o'tkazish orqali sifatli o'tkazilishini tashkil etish.</p>	<p>2026-yil 15–31-yanvar</p> <p>2026-yil 4-fevral – 28-fevral</p>	<p>Mahallalar uyushmasining tuman bo'limi, Tuman statistika bo'limi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman bo'limi, Tuman ichki ishlar bo'limi, Tuman soliq inspeksiyasi, tuman hokimligi</p>
17	Internet tarmog'i orqali ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish.	1. Tumandagi barcha korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari o'z tizimida faoliyat olib borayotgan	2026-yil 15-31-yanvar kunlari	Davlat tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida)

		<p>barcha xodimlarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlarini tashkil etish.</p> <p>2. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan ro'yxatga olish davrida kunlik tartibda tuman statistika bo'limiga o'z tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarining Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tganliklari bo'yicha shaxslar kesimida ma'lumot taqdim etish.</p>		<p>davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan korxonalar va tashkilotlar hamda ularning quyi tizim tashkilotlari, xo'jalik birlashmalari.</p>
--	--	--	--	--

18	Ro'yxatga olishning qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni to'plash.	<p>1. Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar hamda tashkilotlar, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari, shuningdek asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan holda qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarga ro'yxatga olishning mazmun — mohiyatini yetkazish.</p> <p>2. Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar hamda tashkilotlar, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari, shuningdek asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan holda qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan Internet tarmog'i orqali ma'lumotlarni yuborishni tashkil etish.</p>	<p>2025-yil oktabr – 2026-yil yanvar</p> <p>2026-yil 15-yanvar – 28-fevral</p>	<p>Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi, Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi, Tuman fermerlar kengashi, Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Tuman ekologiya bo'limi, Tuman statistika bo'limi, tuman hokimligi</p>
19	Ro'yxatga olish jarayonlarida ishtirok etuvchi xodimlarning va ro'yxatga olish uchun ajratiladigan bino va inshootlarning xavfsizligini ta'minlash.	<p>1. Jinoyatchilik ko'p uchraydigan hududlar va tarbiyasi og'ir oilalar ro'yxatlarini shakllantirish va hududiy statistika organlariga taqdim etish.</p> <p>2. Ro'yxatga olish jarayonlarida jamoat tartibini saqlash maqsadida ro'yxatga oluvchi guruhlarga bir nafar xodim birlashtirish.</p> <p>3. Ro'yxatga olish ishlariga jalb etilgan shaxslarning va ro'yxatga olish</p>	<p>2025-yil 1-noyabr</p> <p>2025-2026-yil yanvar – fevral</p>	<p>Tuman ichki ishlar bo'limi, Milliy gvardiya tuman bo'limi</p>

		uchun ajratiladigan bino va inshootlarning xavfsizligini ta'minlash.		
IV. Moddiy-texnik va moliyaviy ta'minot				
20	Ro'yxatga olishning xarajatlar hisob-kitobini ishlab chiqish.	Ro'yxatga olish xarajatlari hisob-kitobini quyidagilarni hisobga olgan holda ishlab chiqish: asosiy vositalar xarid qilish uchun xarajatlar; xodimlarni o'qitish xarajatlari; xizmat safari xarajatlari; transport ijarasi xarajatlari; me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va chop etish xarajatlari; videorolik, ijtimoiy reklama va tarqatma materiallar tayyorlash xarajatlari; ro'yxatga olish natijalarini chop etish xarajatlari; kutilmagan va boshqa xarajatlar.	2025–2026-yilar davomida	Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi, Tuman statistika bo'limi, tuman hokimligi, tuman komissiyasi

21	Ro'yxatga olish jarayonlarida zarur bo'ladigan moddiy-texnik vositalar, hujjatlar va boshqa zarur vositalar xarid qilish hamda hududlarga yetkazish.	1. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablari asosida moddiy-texnik va boshqa zarur vositalarni zaruratga ko'ra xarid qilish. 2. Xarid qilingan moddiy-texnik va boshqa zarur vositalarni shtabga yetkazib berish.	2025–2026-yilar davomida	Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi, Tuman statistika bo'limi, tuman hokimligi, tuman komissiyasi
----	--	---	--------------------------	--

Navbahor tumani hokimining
2025-yil 4-noyabrdagi
202-5-73-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazishning
ahamiyati va mazmun-mohiyati bo'yicha targ'ibot**

MEDIA-REJASI

T/r	Ma'lumotlar va media mahsulotlar turi	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddatlari	Ijrochilar
1.	Aholi orasida ro'yxatga olish tadbirini keng targ'ib qilish maqsadida ommaviy joylarda tashviqot banner va plakatlarini o'rnatish.	Qisqa va ta'sirchan shiorlar ishlab chiqilib, tuman hokimligi bilan hamkorlikda aholi gavjum joylar (bozorlar, yirik savdo markazlari, markaziy ko'chalar) aniqlanadi hamda ularda banner va plakatlar o'rnatiladi.	2025-yil oktabr – dekabr	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
2.	Ro'yxatga olish tadbirining ahamiyatini aholiga keng targ'ib etish maqsadida korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, jamoatchilik vakillari hamda mashhur shaxslar ishtirokida intervyu va reportajlar tayyorlash.	Korxonalar va tashkilot rahbarlari, jamoatchilik faollari hamda mashhur shaxslar (sportchilar, san'atkorlar, deputatlar, blogerlar) ishtirokida videorolik va intervyular tayyorlanib, ular televideniye, radio, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda efirga uzatilib, keng tarqatiladi.	2025-yil oktabr – dekabr	Tuman Madaniyat bo'limi, Tumandagi korxonalar va tashkilotlar, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
3.	Ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiriga keng jamoatchilik e'tiborini qaratirish, tadbirning ahamiyati va maqsadlarini keng targ'ib etish.	Telegram, Instagram, Facebook, X va YouTube kabi ijtimoiy tarmoqlarda infografika, videorolik, intervyu va podkastlar tayyorlab, ularni keng tarqatish, xeshteglar orqali fleshmob va chellenjlar tashkil etish hamda faol blogerlar bilan samarali hamkorlik qilinishi.	Doimiy	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
4.	Aholiga ro'yxatga olish jarayoni haqida mobil aloqa	Mobil operatorlar bilan hamkorlik o'rnatilib, aholining barcha qatlamiga qisqa va aniq matnli	2025-yil dekabr –2026-yil	Tuman statistika bo'limi

	operatorlari orqali “SMS-xabarnoma” yuborish.	SMS-xabarnomalar yuboriladi. Xabarlarda rasmiy veb-sayt va “Call-center” raqamlari ko’rsatilib, aholiga to’g’ri yo’nalish beriladi.	fevral	
5.	Korxonalar va tashkilot rahbarlari, jamoatchilik vakillari hamda mashhur shaxslarning birinchilardan bo’lib onlayn ro’yxatdan o’tganligi haqida qisqa reportajlar tayyorlab, ularni keng tarqatish.	Korxonalar va tashkilot rahbarlari, jamoatchilik faollari, sportchilar, san’atkorlar, deputatlar, OAV tuman muxbirlari, blogerlarning onlayn ro’yxatdan o’tishi jarayonlarini tasvirga olish, qisqa reportajlar tayyorlash, tayyorlangan materiallarni televideniye, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritiladi.	2026-yil yanvar-fevral	Tuman Madaniyat bo’limi, Tumandagi korxonalar va tashkilotlar, Tuman statistika bo’limi, Tuman hokimligi
6.	Jamoat joylari, ta’lim muassasalari va jamoat transportlarida aholiga ro’yxatga olish tadbiri haqida tarqatma materiallar tarqatish.	Maxsus bukletlar tayyorlanib, ularni maktab va oliy ta’lim muassasalari, avtobuslar, bozorlar hamda boshqa gavjum joylarda aholiga tarqatiladi.	2025-yil dekabr	Oliy ta’lim muassasalari, Tuman transport bo’limi, Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi, Tuman statistika bo’limi, Tuman hokimligi
7.	Bozorlar, vokzallar va boshqa jamoat joylarida aholini ro’yxatga olish tadbiri haqida radio va audio xabarlarni doimiy berish.	Bozorlar, vokzallar, savdo markazlari va boshqa gavjum joylarda ovoz uzatish tizimlari orqali qisqa, aniq va ta’sirchan audio xabarlar tayyorlanib, doimiy ravishda aholiga yetkaziladi.	2025-yil oktabr –2026-yil fevral	Tuman transport bo’limi, Tuman statistika bo’limi, Tuman hokimligi
8.	Ma’lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini ta’minlash maqsadida aholini onlayn ro’yxatdan o’tishga keng jalb etish, ularni rag’batlantirib borish hamda ushbu jarayonni keng yoritish.	Ma’lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini ta’minlash maqsadida aholini onlayn ro’yxatdan o’tishga jalb etish uchun targ’ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, mashhur shaxslar va blogerlarni jalb qilish, qulay onlayn platforma va jamoat joylarida QR-kodlar orqali ro’yxatdan o’tish imkoniyatini yaratish, ishtirokchilarni rag’batlantirish hamda jarayon ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib boriladi.	2025-yil oktabr –2026-yil fevral	Tuman statistika bo’limi, Tuman hokimligi.
9.	Aholi va qishloq xo’jaligini	Savolnomalarni to’ldirish jarayonini	2026-yil	korxonalar va tashkilotlar,

	ro'yxatga olish savolnomalarini to'ldirish tartibi bo'yicha video qo'llanma tayyorlash va tarqatish.	qadamma-qadam ko'rsatadigan oddiy va tushunarli video qo'llanma tayyorlash, unda har bir bosqich amaliy misollar bilan tushuntiriladi. Tayyorlangan videolarni televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-sayt va YouTube kanali orqali tarqatiladi.	yanvar	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
10.	Targ'ibot materiallarida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri ahamiyatini aniq misollar orqali yoritish, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi demografiyasiga oid muhim ko'rsatkichlarni qamrab olish orqali tadbirning ahamiyatini chuqur ochib berish.	Infografika, maqola, videorolik va bukletlarda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning kelgusidagi natijalarini targ'ib etish. Ro'yxatga olish aholi soni, uy-joy, mehnat bozori, oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy xizmatlar va qishloq xo'jaligi rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq misollar orqali ko'rsatiladi. Shu bilan birga, mamlakatdagi oziq-ovqat xavfsizligi, demografik siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ro'yxatga olishning o'rnini keng targ'ib qilinadi.	2025-yil oktabr –2026-yil fevral	Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
11.	Aholini firibgarlik holatlaridan ogohlantirish maqsadida maxsus videorolik tayyorlash va uni keng jamoatchilikka tarqatish.	Videorolik orqali aholiga ro'yxatdan o'tish jarayonida hech qanday kod yoki shaxsiy ma'lumotlar telefon yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali so'ralmasligi, faqat maxsus ishlab chiqilgan yagona rasmiy platforma orqali amalga oshirilishi tushuntiriladi. "Shaxsiy ma'lumotlaringizni firibgarlarga bermang – onlayn ro'yxatdan o'ting" shiori ostida maxsus videorolik tayyorlanib, tarqatiladi.	2026-yil yanvar- fevral	Tuman statistika bo'limi, Tuman Ichki ishlar bo'limi, Tumandagi barcha tashkilotlar, Tuman hokimligi
12.	Yosh bolalar auditoriyasi uchun ro'yxatga olish jarayonining ahamiyatini sodda va qiziqarli shaklda tushuntiruvchi multiplikatsion roliklar tayyorlash.	Bolalar uchun multfilm uslubida videoroliklar tayyorlash, ularda ro'yxatga olishning ahamiyati va aholi hayotiga ta'sirini oddiy misollar orqali ko'rsatish. Tayyorlangan roliklar televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va maktablarda namoyish etiladi.	2025-yil oktabr – dekabr	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi

13.	Savolnomalarni to'ldirish jarayonida aholida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan savollarga tez va aniq javob berish uchun sun'iy intellekt chat-botlari faoliyatini keng targ'ib qilish.	Ro'yxatga olish jarayonida savollarga javob beruvchi maxsus chat-bot yaratish, uning imkoniyatlari haqida videoroliklar va maqolalar tayyorlash. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlar orqali aholi chat-bot xizmatidan foydalanishga yo'naltiriladi.	2025-yil oktabr – dekabr	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
14.	Ommaviy axborot vositalari orqali aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonlari, uning ahamiyati va yangiliklari haqida doimiy intervyular va reportajlar tashkil etish.	Ro'yxatga olish jarayonida ishtirok etayotgan mutaxassislar, faol fuqarolar va mas'ul shaxslar bilan televideniye va radiolarda maxsus ko'rsatuvlar tayyorlash, gazeta va jurnallarda maqolalar nashr etish, internet nashrlari orqali materiallar e'lon qilib boriladi.	2025-yil oktabr –2026-yil fevral	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
15.	Mavzu yuzasidan soha mutaxassislari ishtirokida qiziqarli podkastlar tayyorlash va tarqatish.	Ro'yxatga olishning ahamiyati va jarayon bosqichlari yuzasidan ekspertlar, olimlar va jamoatchilik faollari bilan suhbatlar yozib olish. Podkastlar YouTube va Telegram orqali yoritiladi.	2025-yil oktabr –2026-yil fevral	Tuman statistika bo'limi, Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi, Xalq deputatlari tuman Kengashi, Tuman hokimligi.
16.	OAV va keng jamoatchilik uchun matbuot anjumani va brifinglar tashkil etish.	Tuman komissiyasi shtabida ro'yxatga olish jarayonining maqsadi, ahamiyati va bosqichlari haqida mas'ul rahbarlar va mutaxassislar ishtirokida matbuot anjumanlari va brifinglar tashkil etilib, aholi xabardor qilib boriladi.	2025-yil oktabr –2026-yil fevral	Tuman komissiyasi, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi.
17.	Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlarida maxsus sahifa yaratish va unda ro'yxatga olish jarayoniga oid savol-javoblar, qo'llanmalar va yangiliklarni doimiy joylashtirib borish.	Barcha korxonalar va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida "Ro'yxatga olish – 2026" maxsus sahifasi ishga tushiriladi, unda fuqarolar uchun yo'riqnomalar, video qo'llanmalar va yangiliklar tizimli ravishda joylashtirib boriladi. Fuqarolar uchun onlayn murojaat imkoniyatini yaratiladi.	2025-yil oktabr – 2026-yil fevral	Tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlar, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi

18.	Televideniya "Savol va javob" ko'rsatuvini tashkil etish, unda mutaxassislar ishtirokida aholining savollariga jonli efirda javob berish.	Televideniya orqali muntazam efirda uzatiladigan maxsus interaktiv ko'rsatuv tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Unda aholi tomonidan onlayn va telefon orqali yo'llangan savollarni to'plab, mutaxassislar ishtirokida jonli efirda ularga javob berib boriladi.	2025-yil oktabr – 2026-yil fevral	Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi, Tuman statistika bo'limi
19.	Oliy va o'rta ta'lim muassasalarida maxsus seminar va ochiq darslar o'tkazish, yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash.	Oliy va o'rta ta'lim muassasalarida soha mutaxassislari ishtirokida ochiq darslar tashkil etiladi. Seminarlarda ro'yxatga olishning ahamiyati, savolnomalarni to'ldirish jarayoni va yoshlarning faol ishtirokiga oid ma'ruzalar qilinadi.	2025-yil oktabr – 2026-yil yanvar	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman statistika bo'limi
20.	"Men ro'yxatdan o'tdim!" shiori ostida onlayn fleshmob va chellenjlar tashkil qilish (selfi yoki video shaklida).	Ijtimoiy tarmoqlarda maxsus heshteglar bilan fleshmob uyushtirish, ro'yxatdan o'tgan fuqarolar o'z selfi va videolarini ulashishi, mashhur blogerlarni fleshmobga jalb etish. Eng yaxshi post va videolar mualliflari rag'batlantirilib boriladi.	2026-yil yanvar – fevral	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
21.	Maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari, banklar, davlat xizmatlari markazlari va aholi gavjum bo'ladigan boshqa tashkilot hamda muassasalarda elektron ekranlar orqali ro'yxatga olish jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni tarqatish.	Maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari, banklar, davlat xizmatlari markazlari va aholi gavjum bo'ladigan boshqa tashkilot hamda muassasalarda elektron ekranlarda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning maqsadi, ahamiyati haqidagi ma'lumotlar, infografika va videoroliklarni muntazam joylashtirib boriladi.	2025-yil dekabr – 2026-yil fevral	Tuman sog'liqni saqlash bo'limi, Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Tuman Adliya bo'limi, tijorat banklari, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi
22.	Korxonalar va tashkilotlarda "Ro'yxatga olish kuni" aksiyalarini tashkil qilish – xodimlarni birgalikda ro'yxatdan o'tkazish.	Korxonalar va tashkilot rahbarlari bilan hamkorlikda aholini bir kun davomida uyushgan holda ro'yxatdan o'tkaziladi va bu jarayonlar ommaviy axborot vositalarida keng yoritib boriladi.	2026-yil yanvar – fevral	Tumandagi korxonalar va tashkilotlar, Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi

23.	Jamoat joylari, maktab, oliy ta'lim tashkilotlari va boshqa jamoat transportlarida maxsus QR-kod o'rnatish, undan savolnomaga telefon orqali kirish imkoniyatini yaratish.	Jamoat joylariga yorqin va ko'zga ko'rinadigan banner hamda stikerlar ko'rinishida QR-kodlar o'rnatish. QR-kod orqali fuqarolar telefonlari orqali maxsus platformaga yo'naltirilib, savolnomani to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ladi. QR-kodlar jamoat transporti ichida, bekatlarida, ta'lim muassasalari va bozorlarda joylashtiriladi.	2025-yil dekabr – 2026-yil fevral	Transport bo'limi, Tuman statistika bo'limi.
24.	Statistika organlarida "Ochiq eshiklar kuni" tadbirini tashkil qilish.	Barcha aholi uchun ochiq muloqot maydonini yaratish. Fuqarolarga ro'yxatga olish jarayoni, uning ahamiyati va axborot xavfsizligi haqida atroflicha ma'lumot berish. Mutaxassislar ishtirokida savol-javob sessiyalarini tashkil etish, ro'yxat jarayoni amaliy namoyish qilib boriladi.	2025-yil oktabr - dekabr	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi.
25.	Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining ahamiyati va mazmun-mohiyatini keng aholiga, jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarga surdotarjimon orqali yetkazish.	Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha tayyorlangan videoroliklar va "Navoiy" telekanalida efirga uzatiladigan materiallarda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun surdotarjimondan foydalaniladi.	2025-yil dekabr – 2026-yil yanvar	Tuman statistika bo'limi
26.	Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri targ'ibotiga oid materiallar monitoringini yuritish.	Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda aholi hamda qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini targ'ib qilishga oid materiallarni muntazam monitoring qilish, jamoatchilik bildirgan takliflarni o'rganish va aholi tomonidan eng ko'p beriladigan savollarga javoblar tayyorlash.	2025-yil oktabr r –2026-yil fevral	Tuman statistika bo'limi, Tuman hokimligi